

TA'LIM MUASSASALARIDA SOG'LOM PSIXOLOGIK MUHITNI SHAKLLANTIRISH VA MUSTAHKAMLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Abdullayeva Chamangul Atajonovna

Bog'ot tumani 20-son maktab psixologi

Xudayberganova Adolat Kamoladdin qizi

Bog'ot tumani 3-son

ayrim fanlar chuqur o'qitiladigan sinflari mavjud

umumiy o'rta ta'lim maktab-internati psixologi

Sotimova Nazokat Ravshonbekovna

Bog'ot tumani 27-son maktab psixologi

Xasanova Aziza Xasanboyevna

Bog'ot tumani 48-son maktab psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada umumta'lim muassasalarida sog'lom psixologik muhitni shakllantirish va rivojlantirishning dolzarb jihatlari yoritilgan. Maktabdagi psixologik muhit o'quvchilarning shaxs sifatida kamol topishi, ularning o'qishga bo'lgan motivatsiyasi, emotsional holati va ijtimoiy moslashuviga bevosita ta'sir ko'rsatishi asoslab beriladi. Shuningdek, pedagoglar, maktab psixologi va ota-onalarning o'zaro hamkorligi, ijobiy muloqot madaniyatini shakllantirish, zo'ravonlik va stress holatlarining oldini olish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Maqolada maktabda qulay psixologik muhitni ta'minlash orqali ta'lim sifati va tarbiyaviy jarayon samaradorligini oshirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: psixologik muhit, maktab psixologiyasi, o'quvchi shaxsi, emotsional barqarorlik, pedagogik muloqot, ijtimoiy moslashuv.

KIRISH

Maktab – bu nafaqat bilim beriladigan maskan, balki o'quvchi shaxsining psixologik, ijtimoiy va emotsional jihatdan shakllanadigan muhim muhit hisoblanadi. Shu sababli

maktabda sog‘lom psixologik muhitni yaratish ta’lim jarayonining ustuvor vazifalaridan biri sanaladi. Psixologik muhit o‘quvchilarning o‘zini xavfsiz, qadrlangan va tushunilgan his etishiga xizmat qilishi lozim. Bunday muhit mavjud bo‘lgan ta’lim muassasasida o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishi ortadi, o‘z fikrini erkin ifoda etish, jamoadagi munosabatlarga moslashish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Maktabdagi psixologik muhitni shakllantirishda eng avvalo o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlar muhim ahamiyatga ega. Hurmat, ishonch va adolat tamoyillariga asoslangan pedagogik muloqot o‘quvchilarda ijobiy emotsional holatni yuzaga keltiradi. O‘qituvchining har bir o‘quvchiga individual yondashuvi, uning qobiliyati va psixologik xususiyatlarini inobatga olishi sinfdagi umumiy muhitga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, sinf jamoasida sog‘lom ijtimoiy-psixologik iqlimni yaratish, o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro yordam va hamkorlikni rivojlantirish muhim vazifalardan biridir.

Maktab psixologining faoliyati psixologik muhitni rivojlantirishda yetakchi o‘rin tutadi. Psixolog tomonidan olib boriladigan diagnostik, profilaktik va korreksion ishlar o‘quvchilarda uchrashi mumkin bo‘lgan stress, xavotir, agressiya va moslashuv muammolarini erta aniqlash va bartaraf etishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, psixologning pedagoglar va ota-onalar bilan hamkorlikdagi ishlari bolalarning ruhiy salomatligini muhofaza qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy maktablarda psixologik muhitni buzuvchi omillar sifatida zo‘ravonlik, kamsitish, haddan tashqari talabchanlik va emotsional bosim holatlari uchrashi mumkin. Shu bois bunday salbiy holatlarning oldini olish, o‘quvchilarda ijobiy xulq-atvor va emotsional barqarorlikni shakllantirish maktab jamoasining umumiy vazifasi hisoblanadi. Ijobiy psixologik muhit mavjud bo‘lgan maktabda o‘quvchilar o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon etadi, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanish uchun qulay sharoit yaratiladi.

Hozirgi globallashuv jarayonida dunyoning barcha mamlakatlarida yoshlar tarbiyasiga va ularning ijtimoiy taraqqiyotiga jiddiyroq e’tibor berish masalasiga bo‘lgan ehtiyoj yanada ortib bormoqda, sababi kichik maktab yoshi yoki o‘smirlik davri har bir bolaning butun umri davomidagi o‘ziga xos ijtimoiy poydevor vazifasini o‘taydi. Bu tushunchaning qanchalik mustahkamligi bolaning individual va intellektual taraqqiyotini

ta'minlashga xizmat qiladi hamda jarayonning muvaffaqiyatli tarzda amalga oshishini maktabdagi psixologik xizmat amaliyotisiz ham amalga oshirib bo'lmaydi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, maktabga psixologik xizmat amaliyoti turli davlatlarda turlicha shaklda tashkil etilganligi bilan belgilanadi. Har bir davlat o'zining imkoniyatlaridan va vaziyatlarni inobatga olib psixologik xizmat amaliyoti mexanizmini yo'lga qo'yganligini ko'rishimiz mumkin.

Maktabdagi psixologik xizmat — bu o'quvchilar, o'qituvchilar va ota-onalarga psixologik yordam ko'rsatish orqali sog'lom psixologik muhit yaratishga qaratilgan tizimli faoliyatdir.

Quyida maktab psixologik xizmatining asosiy jihatlari keltirilgan:

1. Maqsadi:

- O'quvchilarning psixik salomatligini saqlash va rivojlantirish.
- Ta'lim-tarbiya jarayonida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va hal qilishga yordam berish.
- Ijtimoiy-psixologik muhitni sog'lomlashtirish.

2. Asosiy vazifalari:

- O'quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini o'rganish (diagnostika).
- Rivojlantiruvchi mashg'ulotlar (treninglar, o'yinlar) o'tkazish.
- Konsultatsiya va maslahatlar berish (o'quvchilarga, ota-onalarga, o'qituvchilarga).
- Muammoli holatlarda psixokorreksion yordam ko'rsatish.
- Ijtimoiy moslashuvga yordam berish.

3. Psixologik xizmat shakllari:

- Individual ishlar: O'quvchilar bilan yakka tartibda suhbat, testlar, maslahatlar.
- Guruhli ishlar: Treninglar, rolli o'yinlar, muhokamalar.
- Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar: Konferensiyalar, ota-onalar yig'inlari, seminarlar.

4. Ish yo'nalishlari:

- Diagnostik: Psixologik testlar, kuzatish va suhbatlar orqali tahlil.
- Konsultativ: Maslahat berish, tavsiyalar ishlab chiqish.
- Koreksion: Muammoli xatti-harakatni tuzatish.
- Rivojlantiruvchi: Shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan ishlar.

5. Hamkorlik:

- O'qituvchilar bilan: O'quvchilarning holati haqida ma'lumot almashish.
- Ota-onalar bilan: Oila va maktab hamkorligini mustahkamlash.
- Tarbiyachilar va rahbariyat bilan: Umumiy tarbiyaviy ishlar rejasini ishlab chiqish.

Ayrim maktabda psixologik xizmatga e'tibor yetarli emasligi – bu ko'plab ta'lim muassasalarida uchraydigan dolzarb muammolardan biridir. Quyida bu muammoning sabablari, salbiy oqibatlar va yechimlari keltirilgan:

Muammoning sabablari:

1. Rahbariyat tomonidan e'tiborsizlik: Ba'zi maktab rahbarlari psixologik xizmatni ikkinchi darajali deb hisoblaydi va unga yetarli resurs ajratmaydi.
2. Jamiyatda psixologik xizmatga nisbatan noto'g'ri qarash:
Ota-onalar va o'qituvchilarning ba'zilar psixologga murojaat qilishni "muammo bor" deb qabul qiladi.
3. Tizimlashtirilmagan faoliyat: Psixologik xizmatning faoliyati ko'pincha rejasiz, nazoratsiz olib boriladi, natijada uning samarasi ko'zga ko'rinmaydi.
4. Ma'lumot yetishmovchiligi: O'quvchilar va ularning ota-onalari psixologik xizmatning vazifalari va imkoniyatlari haqida yetarli ma'lumotga ega emaslar.

Yechim va takliflar:

1. Rahbarlarning ongini oshirish:
 - Maktab rahbariyati uchun psixologik xizmatning ahamiyati bo'yicha seminar-treninglar o'tkazish.
 - Psixologik xizmat samaradorligi haqida hisobotlar va ko'rsatkichlar taqdim etish.
2. Jamoatchilik bilan ishlash:

- Ota-onalar va o'qituvchilarga psixologik xizmat nima ekanligini tushuntirish (majlislar, bukletlar, videolar orqali).

- Psixologik yordamga murojaat qilishni ijobiy targ'ib qilish.

3. Faoliyatni tizimlashtirish:

- Har oy uchun aniq reja va hisobot tayyorlash.
- O'quvchilarning psixologik portretlarini yaratish va kuzatib borish.

4. Moddiy-texnik ta'minotni yaxshilash:

- Psixolog uchun alohida xona, test materiallari, kompyuter va boshqa vositalarni ajratish.

XULOSA

Maktabda sog'lom psixologik muhitni yaratish va rivojlantirish ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, u o'quvchilarning har tomonlama barkamol shaxs bo'lib yetishishiga xizmat qiladi. Ushbu jarayonda pedagoglar, psixologlar va ota-onalarning hamjihatligi, o'zaro tushunishi va mas'uliyatli yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. D.G.Muxamedova. O'zbekiston Milliy Universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq (mintaqaviy) markazi. "Ta'limda psixologik xizmat muammolari" moduli bo'yicha o'quv – uslu-biy majmua. 2024-yil.
2. A.Nazarov. Umumiy psixologiya. O'quv-qo'llanma. Buxoro viloyati bosmaxonasi MCHJ. Buxoro. 2020.
3. <http://ziyonet.uz> – Ta'lim portali Ziyonet
4. Internet materiallari